

**ГИЛОС (CERASUS AVIUM L.) МЕВАЛИ ЭКИНИНИ  
ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИХАТЛАРИ****Қаҳҳоров Сирожиддин Қўшоқович**Самарқанд агроинновациялар ва  
тадқиқотлар институтиEmail: [sirojiddinqahhorov357@gmail.com](mailto:sirojiddinqahhorov357@gmail.com)

Тел: +998 99 671 23 08

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-0209-188X>**Спйфидинов Хайитмурод Зиедуллаевич**Самарқанд агроинновациялар ва  
тадқиқотлар институтиEmail: [sayfiddinovm95@mail.ru](mailto:sayfiddinovm95@mail.ru)

Тел: +998 93 995 15 85

**Қўчқоров Насриддин Самаридинович**Самарқанд агроинновациялар ва  
тадқиқотлар институти

**Аннотация.** Гилос ўзининг таъми ҳамда нафис кўриниши билан халқимиз дастурхонида ўзига хос ўринга эга. Ушбу мақолада гилос етиштиришнинг амалий жиҳатларига эътибор қаратилган. Унга асосий тушунчалар шундан иборатки, гилос етиштирилиши бўйича данак мевали экинлар гуруҳи орасида етакчи турувчи мевали дарахт ҳисобланса, кейинги ўринларда гилос навлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Гилос дарахти, навлар хусусияти, етиштириш агротехникаси

**ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЫРАЩИВАНИЯ ВИШНИ (CERASUS  
AVIUM L.) ПЛОДОВЫХ КУЛЬТУР**

**Аннотация.** Вишня занимает уникальное место на столе нашего народа своим вкусом и элегантным внешним видом. В данной статье основное внимание уделяется практическим аспектам выращивания вишни. Ее основные положения заключаются в том, что ведущим плодовым деревом среди группы семечковых культур по возделыванию считается вишня, в последующем приводятся сведения о сортах вишни.

**Ключевые слова:** Вишневое дерево, характеристика сортов, агротехника выращивания.

**PRACTICAL ASPECTS OF GROWING CHERRY (CERASUS AVIUM  
L.) FRUIT CROPS**

**Abstract.** *Cherry with its taste and exquisite appearance occupies a special place on the tables of our people. This article is devoted to the practical aspects of cherry cultivation. Its main concepts are that cherry is considered the leading fruit tree among the group of pome fruit crops in terms of cultivation, and followed by information about cherry varieties.*

**Key words:** *Cherry tree, characteristics of varieties, cultivation agrotechnics.*

## KIRISH

**Gilos** (*Cerasus avium* L.)-ra'noguldoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub danakli meva daraxti. Yovvoyi holda O'rta va Jan. Yevropa, Eron, Kavkaz, Ukraina, Moldovada uchraydi. Yevropa mamlakatlari, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Yaponiya, Ukrainaning janubi, Kavkaz, Boltiqbo'yi va O'rta Osiyoda ekiladi. Navlari. Gilosning 100 ga yaqin navi ma'lum. O'zbekistonda Gilosning Savri surxoni, Qora gilos, Sariq gilos, Bahor, Revershon, Sariq drogana, Chkalov navlari ko'p ekiladi.

## MUHOKAMA. YETISHTIRISHNING AMALIY JIHATLARI.

Gilos – ko'pchilik sevib iste'mol qiladigan meva. Gilos mevasi o'zining vitaminlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Bu meva organizmimiz uchun muhim bo'lgan kaltsiy, temir, magniy, fosfor, kaliy, natriy minerallariga ham boy.

Odatda gilosning 2 turi mavjud: shirin va achchiq (nordon). Shirin gilos ho'l meva sifatida iste'mol qilinsa, achchiq gilos esa asosan pishiriqlarda va konservalashda ishlatiladi. Gilos daraxti o'ta nozik bo'lib turli hil kasalliklar (monilioz, bakterial nekroz, sitosporoz, ildiz bo'g'zi) tufayli osongina nobud bo'lishi mumkin.

Gilos daraxtlarini parvarishlash mushkulligini inobatga olgan holda, ularni yaxshi namlik o'tkazuvchan va sun'iy ravishda ko'tarilgan tuproqqa ekish tavsiya qilinadi. Achchiq giloslar o'z-o'zini changlatish hususiyatiga ega, ammo shirin giloslar yaxshi hosil berishi uchun changlatuvchi navlari bilan birga ekilishi kerak.

Ko'chatlarni ekish uchun quyosh nuri ko'p tushadigan joy tanlash zarur. Gilos daraxti bir kunda kamida 6 soat quyosh nuriga to'yinishi zarur.

Ular muntazam tuman tushib turadigan hududlarda yaxshi o'sa olmaydilar, ayniksa, yoz mavsumida tushadigan tuman ularni quyoshdan to'yinishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

## NATIJALAR.

Daraxtga siyraklashtirish qavatlash usulida shakl beriladi, yon shoxlari 2–3 qavat qilib qoldiriladi. Quyosh nuri daraxt ichiga yaxshi kirishi uchun har yili o'sgan shoxlari 10% ga qisqartirib butalanadi. Daraxtlarning qarish davrida 4–5 yoshli shoxlari kesilib ko'proq yoshartiriladi. Agar kurtak harakatga kelishidan oldin 3% li va gul to'kilgandan so'ng 1% li bordo suyuqligi bilan ishlov berilsa, gilos daraxtlarida ko'p uchraydigan bakterial rak (elim chiqish) kasalligi oldini olish mumkin.

Gilos daraxti ko'p suvga chidamsiz hisoblanadi. Ko'p sug'orish ildiz chirishi va boshqa kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Suvni yaxshi o'tkazmaydigan tuproqlar gilos daraxti ildizlari uchun muammo tug'diradi. Shuning uchun, og'ir tuproq sharoitlarida daraxtlar atrofida suv ko'lmaklab (yig'ilib) qolishi xavfi oldi olinishi kerak. Yoz davomida daraxtlar rivojlanishini ta'minlash uchun ariq bilan sug'orilsa har 10 kunda bir marta yoki tomchilatib har 2 kunda bir sug'orish maqsadga muvofiq.

O'sib-ulg'aygan gilos daraxtlari keng tarqaluvchi ildiz sistemasiga egaliklari bois, ularga deyarli ortiqcha o'g'it solish talab qilinmaydi. Ularning tez o'sish hususiyatini inobatga olgan holda, qaysi payt qo'shimcha o'g'it talab qilinishini aniqlash mumkin. Daraxt novdalarining uchi yiliga 25 santimetrdan kam o'sishi o'g'itga bo'lgan talab mavjudligini bildiradi. Qo'shimcha ozuqaga talab borligini bildiruvchi boshqa belgilardan yana barglarning oldingi yilga nisbatan kichikroq bo'lishidir. Yozning o'rtasiga kelib muddatidan oldin sarg'ayishi, hamda kuz kelmasidan avval to'kilishi bo'lishi mumkin. Bu kabi holatlardan tashqari hollarda gilos daraxtlariga o'g'it solish maslahat berilmaydi. Aks holda, daraxtlar jadal o'sib ketadi va bu hosilning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Gilos asosan kech bahorda pisha boshlaydi. Mevalarni bandi bilan terish shart, aksholda ular o'z sifatini tezda yo'qotadi. Meva bandini unga zarar etkazmasdan novdaga tegib turgan eridan uzib olinadi.

### 3GILOS NAVLARI:

**BAHOR-** Ma'lumki, gilosning sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlari ichida meva o'lchami, yirikligi o'ta muhim hisoblanadi. Shuning uchun bog'bonlar keyingi yillarda asosan yirik o'lchamli gilos navlari hisobiga bog' yaratishga ahamiyat bermoqdalar. Gilos bir dona mevasining og'irligi 8 grammdan 10 grammgacha yoki undan ortiq bo'lishi uning yirik mevali ekanligiga asos bo'la oladi. Kolleksiya mavjud navlardan mevasining yirikligi bo'yicha Valove serdsa naviga teng keladigani aniqlanmadi. Ushbu nav bir dona mevasining og'irligi 9 grammni tashkil qildi. Shunday bo'lsa-da, mevasi yirik navlar qatoriga Napoleon chyoriniy (7,2 g) va Bahor (7,9 g) navlarini kiritish mumkin. Demak, yuqoridagi navlar hisobiga bog' maydonlarini kengaytirish va ulardan seleksiya ishida foydalanish mumkin bo'ladi.



**ВАЛЕРИЙ ЧКАЛОВ-**Nav Ukraina sug'oriladigan bog'dorchilik ilmiytadqiqot institutining I.V. Michurin nomidagi Markaziy

genetika laboratoriyasida yaratilgan. Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Nav ertapishar, mevasi mayning ikkinchi o'n kunligida pishadi. Hosildorligi – 149,4 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 176,1 s/ga ni tashkil etadi. Daraxtning bo'yi o'rtacha 7,2 m, shox-shabbasi keng tarqoq. Gilos daraxti ekilgandan so'ng beshinchi yili hosilga kiradi. Mevasi yirik, dumaloqyuraksimon, ranggi to'q qizil. Mevasining o'rtacha vazni – 5,1 g. Eti sershira, xushbo'y, zichligi o'rtacha, mazasi yaxshi, danagi etidan yaxshi ajraladi.

**БОСХОД**- Nav Ukraina sug'oriladigan bog'dorchilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Toshkent viloyati bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Daraxti – kuchli o'suvchan, keng piramidasimon shox-shabbali. Bargi yirik, uzunchoq-ovalsimon shaklda. Guli oq, diametri – 39 mm, 5-6 toj bargli, o'lchami – 17-16 mm, keng ovalsimon. Mevasi yirik – 20-22-23 mm, og'irligi – 7,7 g, yuraksimon, tepasi dumaloq. Po'sti qiyin ajraladi, to'q qizil rangda. Mag'zi qizil olcha ranggida, pishiq va sersuv, qandiligi yuqori, kislotaliligi o'rtacha. Mevasining kimyoviy tarkibi: quruq modda – 22,3%, umumiy qand – 11,74%, titralanuvchi kislota – 1,0 ml/g Vitamin S (askorbin kislotasi) – 3,74 mg/%. Danagi mag'zidan o'rtacha ajraladi, ranggi och krem rangda, o'lchami – 9-8-7 mm, og'irligi – 0,53 g. Meva bandi – 47 mm, mevaga mahkam yopishgan, gullash davri – 8-17 aprel. Pishish vaqti – 10-20 may. Hosildorligi – 68 kg/daraxt, o'rtacha hosildorligi esa gektaridan – 141,4 s/ga ni tashkil etadi.



#### ДРОГАНА

**ЖЁЛТАЯ**- Germaniyada yaratilgan. Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Nav o'rtapishar, mevasi iyunning birinchi o'n kunligida pishadi.



Daraxtining bo'yi baland – 6,9 m bo'lib, shoxshabbasi qalin. Daraxti ekilgandan so'ng to'rtinchi yildan hosil bera boshlaydi. Hosildorligi – 83,2 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 163,8 s/ga ni tashkil etadi. Mevasi dumaloq, sharsimon, ranggi sariq, yirik, o'rtacha vazni – 5,0 g. Eti zich, och sariq, juda sershira, mazasi shirin, sal taxiri bor. Mevasining pishgan vaqtidagi ta'm bahosi – 3,5 ball.

**QORA GILOS-** Xalq tomonidan yaratilgan mahalliy nav. Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Gilos daraxtining bo'yi baland, ekilgandan so'ng 3-4-yili hosilga kiradi. Hosildorligi – 88,8 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 118,9 s/ ga ni tashkil etadi. Mevasi o'rtacha, to'q qizil, mazasi o'ziga xos, sersuv. Mevasi iyunning birinchi o'n kunligida pishadi. Mevasining o'rtacha vazni – 5,6 g pishgan vaqtidagi ta'm bahosi – 4,0 ball.



**КОСМИЧЕСКАЯ-** Nav Ukrainaning sug'oriladigan bog'dorchilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. Gilos daraxtining bo'yi baland, mevasi iyunning ikkinchi o'n kunligida pishadi, daraxti ekilgandan so'ng oltinchi yili hosilga kiradi. Hosildorligi – 102,2 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 162,3 s/ga ni tashkil etadi. Mevasining ranggi qizil, shakli dumaloq-yuraksimon, sersuv, mevasining pishgan vaqtidagi ta'm bahosi – 4,9 ball, vazni – 8 g.



### XULOSA

Xulosa qilib aytganda gilos qadimdan etishtiriladigan va o'zinig nav sifatleri bilan ajralib turadigan meva ekini sifatida o'stirilib va iste'mol qilinib kelinayotgan mevali daraxt toifasiga kiradi. Yuqorida ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki gilosning mavjud navlari asosida seleksioner olimlar tarafida bugungi zamonaviy laboratoriya sharoitida yangi o'ziga xos bo'lgan nok namuna navlarini yaratishga imkon beradi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. A.A.Ribakov, S.A.Ostrouxova (1981). O'zbekiston mevachilig. O'qituvchi Toshkent, 27-29, 189-190 betlar.
2. Alisher Botirov, Baxodir Ochilov, & Furqat Hasanov (2022). ILMIY-TAJRIBA STANSIYASINING SO'NGI YILLARDAGI STATISTIK KUZATUVLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 202-207.
3. Nosirova, Z., & Xalmirzayeva, L. (2022, July). Some representatives of Pyraloidae superfamily occurring in Uzbekistan region. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1068, No. 1, p. 012041). IOP Publishing.
4. Qahhorov, S. Q. S. (2023). SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA ERTANGI EKIN SIFATIDA YETISHTIRILGAN BROKKOLI KARAMINING O 'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 790-796.

1. Қахҳоров, С. Қ. (2022). БРОККОЛИ КАРАМИНИ ТАКРОРИЙ ЭКИН СИФАТИДА ЕТИШТИРИШНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 391-396.
5. Bobomuradov, Z. S., & Bobokulov, Z. R. (2018). No\_ xat ekinining o\_ ziga xos xususiyatlari (Fermirlarga kichik maslahat). *DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR*, 989, 992.
6. Халмирзаева, Л., & Абдурасулов, Ф. (2021). УГИТЛАШ ВА БАҲДАН КУШИМЧА ОЗИКЛАНТИРИШНИНГ УНАБИ КУЧАТЛАРИГА ТАЪСИРИ. *Журнал естественных наук*, 1(1).
7. Fayzimurodov, J. B. O. G. L., & Sakibayev, J. I. O. G. L. (2023). YOMG ‘IR SUVIDAN SAMARALI FOYDALANISH ZARURARTI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 1098-1101.
8. Х.З. Сайфидинов (2022). ЛЕТНЯЯ ПОСАДКА КАРТОФЕЛЯ. *Ученый XXI века*, (6 (87)), 31-32.